

**YANGI O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM  
TIZIMIDAGI YANGI IMKONIYATLAR****Sattorov Asilbek Adhamjon o'g'li***Dang'ara tuman 3-son politexnikumi,  
maxsus fan o'qituvchisi***Qambarov Oybek Olimjonovich***Dang'ara tuman 3-son politexnikumi, O'quv  
ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonning professional ta'lim tizimiga bo'lgan e'tibori, texnikumlarning rivojlanishi, Prezidentning 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son farmoni doirasidagi islohotlar va ularning natijalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada texnikumlarga qabul qilish tartibi, 2+2 va 2+3 tizimlari, dual ta'lim tizimining afzalliklari batafsil ko'rib chiqiladi. Texnikumlar bilan Oliy ta'limning integratsiyasi haqida so'z yuritiladi. Ushbu maqolada, shuningdek, ta'lim tizimidagi yangiliklar va yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, professional ta'lim tizimi, texnikumlar rivojlanishi, PF-158-son farmoni, 2+2 tizimi, 2+3 tizimi, oliy ta'lim integratsiyasi, dual ta'lim tizimi, kasbiy ko'nikmalar, texnikumlarning raqamlashtirilishi, yil davomida o'quvchilarni qabul qilish tartibi, ta'lim islohotlari, yoshlar imkoniyatlari.

**Аннотация:** В данной статье освещено внимание Нового Узбекистана к системе профессионального образования, развитию техникумов, реформам в рамках Указа Президента №ПФ-158 от 16 октября 2024 года и их результатам. Также в статье подробно рассмотрен порядок поступления в техникумы, системы 2+2 и 2+3, преимущества дуальной системы обучения, говорится об интеграции техникумов и высшего образования. В данной статье также анализируются инновации в системе образования и возможности, созданные для молодежи.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, система профессионального образования, развитие техникумов, Указ № ПФ-158, система 2+2, система 2+3, интеграция высшего образования, система дуального образования, профессиональные навыки колледжа, цифровизация техникумов, круглогодичный порядок приема, образовательные реформы, возможности молодежи.

**Abstract:** This article highlights the attention of New Uzbekistan to the professional education system, the development of technical schools, reforms within the framework of the Presidential Decree No. PF-158 of October 16, 2024 and their results. Also, the article discusses in detail the procedure for admission to technical schools, 2+2 and 2+3 systems, the advantages of the dual education system. It talks about the integration of technical schools and higher education. This article also analyzes the innovations in the education system and the opportunities created for young people.

**Key words:** *New Uzbekistan, professional education system, development of technical schools, Decree No. PF-158, 2+2 system, 2+3 system, integration of higher education, dual education system, professional college skills, digitization of technical schools, year-round admission procedure, educational reforms, youth opportunities.*

**Kirish.** Ta’lim har qanday jamiyatning rivojlanishida eng muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimi so‘nggi yillarda katta islohotlarga uchradi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish belgilangan. Professional ta’lim, xususan, texnikumlar yoshlar uchun zamonaviy bilimlar va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Prezidentning 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son farmoni bu yo‘nalishda yangi sahifalarni ochib berdi. Farmon doirasida texnikumlar va professional ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu farmonning joriy etilishi sohaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

### **I. Professional ta’lim tizimida Yangi farmonning qabul qilinishi**

Yangi O‘zbekiston hukumati yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirdi. O‘zbekistonda ta’limni hamma yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan turli yangi siyosatlar va qonunlar joriy etildi. Xususan, Prezidentimizning 2024-yil 16-oktyabrda PF-158-son farmoni tasdiqlangan bo‘lib, bu hujjat texnikumlar va professional ta’lim tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Farmonda ta’lim tizimining sifatini oshirish, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va kasbiy ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish vazifalari ko‘zda tutilgan. Ushbu islohotlar orqali texnikumlarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlash, o‘quv dasturlarining yangilanishi va yoshlar uchun kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy ta’lim metodlarini joriy etish ko‘zda tutilgan.

#### **✓ Kasbiy ta’lim tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha takomillashtiriladi:**

- Kasbiy ta’limning **barcha darajalari** bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona tizim joriy qilinadi.
- Texnikumlarning **akademik mustaqilligi** oshiriladi hamda iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengaytiriladi.
- O‘quv jarayoniga **xalqaro tan olingan** ta’lim dasturlari joriy qilinadi va ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning **xorijiy davlatlarda tan olinishi** ta’minlanadi.
- Texnikumlar o‘quv jarayonlari bosqichma bosqich **raqamlashtiriladi.**
- Zamonaviy o‘quv adabiyotlari, metodik qo‘llanmalar va raqamli kontentlar, laboratoriya va ustaxonalarini eng zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash amalga oshiriladi.

#### **✓ Professional ta’lim sohasidagi yangiliklar:**

- 2025/2026 – o‘quv yiliga qadar ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash maqsadida kadrlar va buyurtmachilari hamkor sifatida biriktiriladi.
- Texnikumlar **90** ta OTMlarga biriktiriladi. O‘rtacha **6** ta texnikum **1** ta OTM bilan ishlaydi.
- Xorijiy ta’lim tashkilotlar bilan **qo‘shma ta’lim dasturlari** joriy etiladi.

- Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha **qisqa muddatli o‘quv kurslarini** tashkil qilishga ruxsat etiladi.

- ✓ **Rahbarlarni tayinlashning yangi tartibi joriy qilindi.**

- Texnikumlarga direktor va direktor o‘rinbosarlari elektron platforma orqali **ochiq tanlov** asosida tayinlanadi

- Bunda direktor va direktor o‘rinbosarlari o‘zlarining strategik rejasini ishlab chiqadi va ular bilan **uch yillik mehnat shartnomasi** tuziladi.

## **II. Yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar:**

### **1. Texnikumlarga qabul qilish tartibi:**

Texnikumlarga qabul qilish imtihonlari soddalashtirilib, shaffoflikni ta‘minlash maqsadida test sinovlari raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilmoqda. Texnikumlarga kirish imtihonlari shakli **Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi** tomonidan belgilanadigan bo‘ldi. Bu esa o‘quvchilarni to‘plagan ballari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri texnikumlarga kirish imkoniyatlarini beradi hamda talabalar o‘qishga davlat grandlari va to‘lov kontrakt- shartnoma asosida qabul qilinadi. Shuningdek, O‘qishga qabul qilish yil davomida **Hamkorlik-shartnomasi** asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshiriladigan bo‘ldi. Har bir texnikumlarga **“Dual”** ta‘lim tizimini joriy etishga ruxsat berildi. Ushbu tizimning joriy etilishi talabalarni ishdan ajralmagan holda faoliyat yuritishlarini ta‘minlashga erishildi. Shuningdek, texnikumlarda **2+2 va 2+3** modellari joriy etilgan bo‘lib, bu jarayon o‘quvchilarni Oliy ta‘limga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga imkon yaratdi. Xususan, talabalar endilikda Oliy ta‘limga **2- kurs va 3-kursdan** qabul qilinishlariga erishildi.

### **2. Kredit-modul tizimi:**

- Texnikum va oliy ta‘limda kredit-modul tizimi joriy etilgan, bu esa o‘quv dasturlarini integratsiyalashni osonlashtirmoqda.

- Talabalar texnikumda olgan kreditlarini oliy ta‘lim muassasasida davom ettirish uchun hisobga oldirishlari mumkin.

- Ushbu tizimning joriy etilishi endilikda Texnikumlarni bitirgan talabalarga **77 ta** davlatga **o‘tadigan Davlat namunasidagi Xalqaro diplom** beriladigan bo‘ldi.

### **3. Xalqaro grandlar va stipendiyalar:**

- Iqtidorli yoshlar uchun davlat va xususiy grant dasturlari joriy etildi.

- Xorijda ta‘lim olish istagidagi yoshlar uchun **“El-yurt umidi”** jamg‘armasi orqali moliyaviy ko‘mak ko‘rsatilmoqda.

### **4. Hamkorlik dasturlari:**

- Texnikumlar va universitetlar o‘rtasida qo‘shma dasturlar tashkil etilmoqda, bu orqali o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida texnik va oliy ta‘limni olishi mumkin.

- O‘qituvchilar malakasini oshirish uchun universitetlar va texnikumlar o‘rtasida almashuv dasturlari yo‘lga qo‘yilgan.

## **III. Yangi O‘zbekistonda Texnikumlar va Oliy ta‘lim bilan integratsiyasi**

Yangi O‘zbekistonda texnikumlarning oliy ta‘lim bilan integratsiyasi ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va yoshlarning oliy ma‘lumot olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ta‘lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keluvchi malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Texnikum va oliy ta‘lim dasturlarini uyg‘unlashtirish, xalqaro tajribalarga asoslangan **kredit-modul** tizimini joriy etish hamda texnikum bitiruvchilariga oliy ta‘limda davom etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ta‘limning uzluksizligi va sifatini oshirish rejalashtirilgan. Ushbu integratsiya iqtisodiyotning texnik sohalarida malakali kadrlar yetishtirish, ta‘lim va ishlab chiqarish jarayonlarini uyg‘unlashtirish, shuningdek, ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu islohotlar O‘zbekistonning ta‘lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish va mamlakat rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan muhim qadamlardan biridir.

#### IV. Xalqaro Diplomlarni tan olinishi va Global integratsiyaga yo‘l

Yangi O‘zbekistonda texnikum diplomlarining xalqaro miqyosda tan olinishi uchun xalqaro akkreditatsiya tizimi joriy etilmoqda. Texnikumlarda o‘qitilayotgan dasturlar xalqaro global standartlarga moslashtirilgan bo‘lib, bu bitiruvchilarga xorijiy mamlakatlarda o‘z kasbiy faoliyatini davom ettirish imkoniyatini bermoqda. Shuningdek, texnikum bitiruvchilari xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lish orqali chet elda ishlash uchun talab qilinadigan malakalarni tasdiqlash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.

Oliy ta‘lim sohasida esa O‘zbekistonning xalqaro universitetlar bilan hamkorligi tobora kengayib bormoqda. Yurtimizda yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari ochilib, **qo‘shma ta‘lim dasturlari** joriy etilgan. Bu esa talabalarga **ikkita diplom** olish imkonini yaratmoqda. Xalqaro hamkorlik doirasida talabalarning akademik almashinuvi va xorijda stajirovka o‘tash dasturlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Bunday hamkorlik O‘zbekistonning ta‘lim tizimini global darajaga olib chiqish va yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

**Xulosa.** Yangi O‘zbekistonda ta‘lim sohasidagi islohotlar, ayniqsa texnikum diplomlarining xalqaro miqyosda tan olinishi va oliy ta‘limning xalqaro universitetlar bilan hamkorligi, yoshlarning global mehnat bozoriga integratsiyasini ta‘minlamoqda. Texnikumlar va oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro standartlarga moslashuvi, o‘quvchilarga chet elda ishlash va o‘qish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, Texnikumlarda **“DUAL”** ta‘lim tizimining joriy etishi yanada yoshlar uchun imkoniyatlarni kengaytirdi. O‘zbekistonda xalqaro hamkorlikni kengaytirishi, ta‘lim tizimining sifatini oshirishga va yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlashga yordam bermoqda. Bunday islohotlar davomida mamlakatning ta‘lim sohasidagi global integratsiyasi yanada kuchayib, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi “Ta’lim tizimini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish” haqidagi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan 2023-yilda chiqarilgan “Yoshlar va ta’lim tizimidagi islohotlar” ma’ruzasi.
3. Xalqaro ta’lim tizimi va uning O‘zbekistondagi ta’siri, “O‘zbekiston ta’limi” jurnali, 2022-yil, 3-son.
4. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlik: imkoniyatlar va rivojlanish, “Ta’lim va innovatsiyalar” ilmiy maqolalar to‘plami, 2023-yil.
5. O‘zbekiston va Xitoyning ta’lim sohasidagi hamkorligi: muvaffaqiyatlar va istiqbollar, “Global ta’lim tizimi” ilmiy nashri, 2022-yil.